

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA TOPONIMLAR LINGVOPOETIKASI

Sabirova Gulasal Hikmat qizi

Urganch davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi Erkin Vohidov she'riyati tarkibidagi toponimlar ya'ni joy nomlarining lingvopoetikasi xususida so'z ketadi. E. Vohidov she'rlari tarkibida qo'llanilgan joy nomlari sanab o'tilib ularning qay tarzda keltirilgani ochib beriladi. Fikrlar o'z namunalari bilan keltiriladi.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Afg'on, Hind, sitam bul, Donishqishlog'im.*

O'zbek onomastikasi birliklari ham zamonaviy tahlil tamoyillari asosida o'rganilishi lozim. Bunda o'zbek lisoniy ongida saqlanuvchi onomastik birliklarni tadqiq etish nafaqat tilimiz xususiyatlarini, balki xalqning milliy tafakkuri va psixologiyasi, milliy madaniyati, tarixi, urf-odatlarini bilan aloqador jihatlarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Onomastik birliklar alohida olingan ijodkor asarlari misolida ham tadqiq etilishi mumkin. Bu o'sha ijodkorning umumjahoniy va umummilliy madaniyatdan nechog'lik xabardor ekanligini ko'rsatishi bilan birga uning millatning aqliy salohiyati, badiiy tafakkuri, madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasini aniqlash imkonini ham beradi. Biz ushbu maqolamizda E.Vohidov she'riyatidagi toponimlar lingvopoetikasi xususida fikr yuritimiz.

Erkin Vohidovning har bir she'rida davrning yorqin manzarasi, xalqning o'lmas psixologiyasi, millatning monumental qiyofasi to'la aks etadi. Shoir she'riyatida toponimlar ham faol qo'llanilgan bo'lib, ular ijodkorning badiiy niyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Erkin Vohidov she'rlarida qo'llangan joy nomlari - toponimlarni tahlil qilish uning asarlari onomastik ko'lami o'zida boy madaniy va tarixiy ma'lumotlarni mujassam etganligini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijodkor matnga muayyan toponimni olib kirar ekan, o'sha toponim bilan aloqador faktlar matn mazmuni bilan uyg'unlik hosil qila olgandagina, nom badiiyati to'laqonli yoritiladi. Quyida ana shunday muvaffaqiyatli qo'llangan joy nomini misol qilamiz: E.Vohidovning "O'zbekim" nomli qasidasida qo'llangan Afg'on toponimi Hind (Hindiston) toponimi bilan birga qo'llanib, Zahiriddin Muhammad Boburning taqdir taqozosi bilan avval Afg'oniston, keyin Hindistonda yashashga majbur bo'lganligi haqidagi tarixiy faktga ishora qilib kelgan.

Bunda *Hind* va *Afg'on* poetonimlari hajman kichik shaklda (bir baytda) katta mazmuni berishga xizmat qilib, intertekstual matnni yuzaga keltirgan. Shuningdek, baytda onomastik birlik (*Afg'on*)ni o'z apellyativ asosi (*afg'on*) bilan birga qo'llashdan iborat usuldan foydalanilib, tajnis san'ati hosil qilingan. Natijada shakl va mazmunning o'ziga xos tarzda bo'lishi, ularning o'zaro muvofiqligiga erishilgan:

*Yig'ladi furqatda Furqat Ham muqimlikda Muqiyim,
Nolishingdan Hindu Afg'on Qildi afg'on, o'zbekim*

(E.Vohidov. "O'zbekim").

Quyidagi misolda ham *O'zbekiston* nomi murojaat birligi sifatida qo'llanib, nido san'atini hosil qilishda lingvopoetik vosita bo'lgan. Lirik qahramon ona yurtiga o'zining eng yaqin, suyuqli kishisiga so'zlagan kabi *O'zbekistonim* deb murojaat qilishi she'rdagi samimiyatni yuzaga keltirishda, vatanga bo'lgan chuqur muhabbat tuyg'ularini ifodalashda lingvopoetik vosita bo'lib kelgan:

*Bu yerga ko'milgan milliard kitoblar.
Farangu Hindu Chin, Iroq, Ajamga
Taralding Alqonun, Saydona bo'lib.
Buyuklar tan bergan buyuk dostonim – O'zbekistonim.
... Hali olis edi sen kutgan najot.
Erk deya atalgan tabarruk shamga
Intilding bir umr parvona bo'lib.
Parvonadek kuyib o'rtangan jonim – O'zbekistonim.*

(E.Vohidov. "O'zbekiston").

E.Vohidovning *O'zbekiston*ning o'n sakkiz millioninchi fuqarosi dunyoga kelganiga bag'ishlab yozgan "Yurtim bolasi" nomli she'rida *O'zbekiston* chaqalog'ini oppoq yo'rgakka o'rab olgan onaga qiyoslanib, obrazli ifoda hosil qilingan: *O'n sakkiz ming olam sevinch, nolasi,*

*Hayrati, umidi, alami bilan
Sen dunyoga kelding, yurtim bolasi,
O'n sakkizinchi million raqami bilan.
Onang O'zbekiston seni o'radi
Yanvar dalasining oq yo'rgagiga*

(E.Vohidov. "Yurtim bolasi").

Ba'zan ijodkorlar toponimlarni matn tarkibiga olib kirishda uyqash yoki ohangdosh so'zlarni qo'llash usulidan foydalanadi. Bunda toponim o'z shakliga ko'ra matndagi boshqa so'zlar bilan o'zaro aloqaga kirishadi:

*Chaqmoq kabi bir lahza nasib etdi visoli,
Endi menga yor turk go'zali hajrida ham bul.*

*Izlab necha kun shahrida ovora bo'libman,
Istanbul emas, oshiq uchun jonga sitam bul*

(E.Vohidov. "Turk go'zali").

Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, intertekstuallikni hosil qilishda va badiiy matnning makoniy individualligini ta'minlashda toponimlardan keng foydalaniladi.

E.Vohidovning "Donishqishloq latifalari" hajviy asaridagi Matmusaning qishlog'i to'qima *Donishqishloq* nomi bilan yuritiladi:

*Donishqishloq degan joy
Bordir bizning tomonda.
O'sha qishloq ahlidek
Dono xalq yo'q jahonda.*

She'rdan toponim o'zining nominativ ma'nosiga zid qo'llangan. Ya'ni bu joyning odamlari donishmand emas, balki juda sodda, dumbul insonlar sifatida tasvirlanadi va badiiy matnda ham bu izohlanadi.

Shoir "Inglizcha ketish" she'rida ham bu toponimni an'anaviy nom sifatida tilga oladi va qishloq ahlining soddaligiga ishora qiladi. To'qima toponim qiyoslash, intertekstuallikni yuzaga keltirish uchun qo'llangan.

*Xayrlashmay ketar ingliz,
Mezbonini notinch etmaydi.
Donishqishloq ahli, bilsangiz,
Xayrlashadiyu ketmaydi*

(E.Vohidov. "Inglizcha ketish").

Umuman olganda, o'zbek adabiyotida, xususan, Erkin Vohidov ijodida toponimlar ham faol qo'llanilgan. Bunday nomlarni tahlil qilish, o'z navbatida, mashhur ijodkorlar asarlarining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, 2013.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014.
3. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.
4. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. – 283 б.
5. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент: Наврўз, 2014.
6. Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 316 б.